



**BUXORO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-OKTABR**




2022- yilning yanvar-oktabr oyida, Buxoro viloyatida jami **6 691,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **100,8 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 783

Bino va inshootlar qurish

350

Fuqarolik obyektlarini qurish

833

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 101,0 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 60,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 136,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 28,1 foiz ulushni va 92,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.11.2021- y.	01.11.2022- y.	
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 938</b>	<b>2 966</b>	<b>101,0</b>
<b>Buxoro shahri</b>	<b>975</b>	<b>960</b>	<b>98,5</b>
<b>Kogon shahri</b>	<b>126</b>	<b>133</b>	<b>105,6</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	<b>74</b>	<b>81</b>	<b>109,5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>233</b>	<b>224</b>	<b>96,1</b>
<b>Vobkent</b>	<b>124</b>	<b>127</b>	<b>102,4</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>197</b>	<b>201</b>	<b>102,0</b>
<b>Kogon</b>	<b>145</b>	<b>147</b>	<b>101,3</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>116</b>	<b>113</b>	<b>97,4</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>55</b>	<b>59</b>	<b>107,3</b>
<b>Peshko'</b>	<b>165</b>	<b>182</b>	<b>110,3</b>
<b>Romitan</b>	<b>238</b>	<b>262</b>	<b>110,0</b>
<b>Jondor</b>	<b>248</b>	<b>232</b>	<b>93,5</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>242</b>	<b>245</b>	<b>101,2</b>



# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (32,3)



Romitan t. (8,8)




Shofirkon t. (8,3)



## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6 691,1</b>	<b>1 259,8</b>	<b>3 582,2</b>	<b>1 849,1</b>
Buxoro sh.	1 634,7	171,3	1133,7	329,7
Kogon sh.	432,6	291,9	102,5	38,2
<b>tumanlar:</b>				
Olot	384,9	99,8	133,5	151,6
Buxoro	461,9	33,8	276,9	151,2
Vobkent	187,7	-	91,5	96,2
G'ijduvon	544,6	1,0	292,1	251,5
Kogon	485,8	96,4	252,3	137,1
Qorako'l	268,8	11,8	122,1	134,9
Qorovulbozor	366,5	245,3	100,3	20,9
Peshko'	414,1	-	269,9	144,2
Romitan	692,9	280,7	241,9	170,3
Jondor	371,5	-	240,7	130,8
Shofirkon	445,1	27,8	324,8	92,5





2022- yilning yanvar-oktabr oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 259,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 82,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 3,9 % punktga kamayib, 18,8 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 67,5% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,3 %), Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 66,9 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 86,5%) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-oktabr oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,6% i to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-oktabr ko'rsatkichiga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,8% ni tashkil etgan holda 3 582,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



53,6

2022-yil  
Yanvar-oktabr


51,0

2021- yil  
Yanvar-oktabr



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (324,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 73,0 %), Buxoro shahrida (1 133,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 69,3 %) va Peshko' tumanida (269,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 65,2%) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,6 %** ni tashkil etdi yoki **1 849,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,7 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **467,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **6 223,5 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **7,0 %** va **93,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr



Davlat mulki

Nodavlat mulki

2022- yil yanvar-oktabr



Davlat mulki

Nodavlat mulki

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-oktabr oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **65,9 %** i yoki **4 411,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**16,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **728,8** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **2 095,8** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **47,5 %** ni tashkil etdi.

**47,5 %**

**36,0 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 586,8** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,0 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr oyida


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6 691,1</b>	<b>100,8</b>	<b>100,0</b>
<b>shahar:</b>			
Buxoro sh.	1 634,7	102,0	24,4
Kogon sh.	432,6	102,8	6,5
<b>tuman:</b>			
Olot	384,9	108,0	5,8
Buxoro	461,9	100,9	6,9
Vobkent	187,7	119,1	2,8
G'ijduvon	544,6	104,1	8,1
Kogon	485,8	103,1	7,3
Qorako'l	268,8	106,5	4,0
Qorovulbozor	366,5	95,1	5,5
Peshko'	414,1	117,3	6,2
Romitan	692,9	78,3	10,3
Jondor	371,5	105,0	5,6
Shofirkon	445,1	106,4	6,6



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 12,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-oktabrdagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 % punktga ko'payib, 45,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga ko'payib, 42,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,6 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-oktabrga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 75,4 % (1,1 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi va 44,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 55,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi.





## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6 691,1</b>	<b>4 346,0</b>	<b>1 602,7</b>	<b>742,4</b>
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 634,7	1 009,5	485,3	139,9
Kogon sh.	432,6	277,5	113,2	41,9
<i>tuman:</i>				
Olot	384,9	222,1	49,4	113,4
Buxoro	461,9	338,2	92,4	31,3
Vobkent	187,7	135,1	42	10,6
G'ijduvon	544,6	417,9	94,1	32,6
Kogon	485,8	309,3	143,1	33,4
Qorako'l	268,8	189	61,2	18,6
Qorovulbozor	366,5	68,3	95,2	203
Peshko'	414,1	297	85,5	31,6
Romitan	692,9	536,1	134,4	22,4
Jondor	371,5	264,8	80,4	26,3
Shofirkon	445,1	281,2	126,5	37,4



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr



ulushi % da



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3 364,9</b>	<b>99,3</b>
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	5 719,7	100,7
Kogon sh.	6 877,1	101,0
<i>tuman:</i>		
Olot	3 777,2	106,6
Buxoro	2 668,6	99,2
Vobkent	1 300,0	117,2
G'ijduvon	1 736,0	102,5
Kogon	5953,4	101,0
Qorako'l	1 598,1	105,1
Qorovulbozor	19 088,8	92,6
Peshko'	3 247,9	115,4
Romitan	4 706,9	77,0
Jondor	2 059,4	103,3
Shofirkon	2 437,7	104,8



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga  
qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-oktabr uchun**



**Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-oktabr oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 19 088,8 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 92,6 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 6 877,1 ming so'm (yoki 101,0 %), Kogon tumani— 5 953,4 ming so'm (yoki 101,0 %), Buxoro shahri – 5 719,7 ming so'm (yoki 100,7 %), va Romitan tumani – 4 706,9 ming so'm (yoki 77,0 %) egalladi.**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (65) 223-81-99**